

Mavzu: Gaplarda tinish belgilarining qo'llanilishi

Aa Galereyada tasviriy san'at asarlari namoyish qilindi.

galereya



Galereya – tasviriy san'at asarlarini namoyish qilish uchun mo'ljallangan keng maydon.

Binolarni birlashtirib turadigan uzun yo'lak ham galereya deyiladi.



1-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan gaplarni ko'chiring.

Muzey tarixiy ahamiyatga ega buyumlar saqlanadigan maskan-dir. Muzeylarda qadimiy buyumlar, san'at asarlari, hujjatlar va boshqa eksponatlar namoyish etiladi. **Odamlar muzeyga tashrif**

buyuradilar, o'z xalqining tarixi va madaniyati bilan tanishadilar. Muzeylar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Shuning uchun muzeylar ma'naviy merosimizni asrashda muhim o'rin tutadi.

- Gaplarning bosh bo'laklarini aniqlang.
- Gaplarni tuzilishiga ko'ra og'zaki tahlil qiling.





Yozuvda **lekin**, **ammo**, **biroq** kabi bog'lovchi so'zlardan oldin **vergul (,)** qo'yiladi.

Masalan: Men sayrga chiqmoqchi edim, biroq yomg'ir yog'ib qoldi.



2-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga mos bog'lovchi so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Kuz keldi ... o'rmon oltin rangga burkandi.
2. Kuzda qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi, ... ayrimlari qishlash uchun qoladi.
3. Bola kitob o'qidi, ... telefon o'ynashga ham vaqt topdi.
4. Men kutubxonaga ertaroq keldim, ... do'stim kechikdi.

AMMO
VA
LEKIN
BIROQQ



3-mashq. Gaplarning chegarasini aniqlang. Tinish belgilarini to'g'ri qo'llab, gaplarni ko'chiring.

Akmal va Madina mashg'ulotdan birgalikda chiqishdi ular bugungi dars juda qiziqarli¹ bo'lganligi haqida suhbatlashishdi Madina yangi mavzuni yaxshi o'zlashtirganini aytdi topshiriqlar ham qiziqarli bo'lganini ta'kidladi bolalar uy vazifalarini birgalikda bajarishga kelishib oldilar xursand bo'lib uylariga qaytishdi

- Qaysi sodda gaplardan qo'shma gaplar hosil qilish mumkin?





4-mashq. O'qing. Gaplarning tuzilishidagi xatoliklarni aniqlang.

Men kitob o'qimoqchi edim, ammo salqin shamol esardi.

Havo sovuq edi, biroq javobini tekshirib ko'rmadi.

Jasur masalani tez yechdi, biroq bolalar hovlida o'ynashdi.

Quyosh charaqlab turardi, ammo vaqtim yetmadi.

- Sodda gaplarni o'z o'rnida qo'llab, qo'shma gaplar hosil qiling.



5-mashq. O'qing. She'rdagi xato so'zlarni toping va to'g'rilab ko'chiring.

O'quv qurollari haqida ertak

Bir kun o'quv qurollar
Birdan tortiship qolar.
Sababi oddiy biroq:
Kimning ishi muhimroq?
– Bilimlarim behisop,
Men zarurman, – der kitop.
– Mashq yozolmaysiz agar,
Men bo'lmasam, – der daptar.
Rushka qovog'in solar:
– Kim mensis yoza olar?
– Men bo'lmasam, – der bo'yog',
Rangsiz qolar hamayoq.

Qalam so'zlar: "Hoy, boyog',
Men kerakman-ku, ko'proq!"
Chizg'ich der: "Juda qizig',
Mensis yo'q to'g'ri chizig'".
– Yo'qolsam, – der o'chirkich,
– Xatolar bo'lar g'ij-g'ich.
Ularga qarap doska,
Yondi faqat birpasga.
Ko'rindi aniq so'zlar:
Bahshi qo'ying, azislar.
Kerakli bo'lgan joyda,
Hamma keltirar poyda.

Kavsar Turdiyeva

- She'rda qanday tinish belgilarini uchratdingiz?



15-dars. 2-nazorat ishi

16-dars. Xatolar ustida ishlash